

“TASDIQLAYMAN”

Oriental universiteti rektori

 N. Mamataxunov

2026-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_



**LOYIHA**

**“DUNYONING BESHIGIN TEBRATAR AYOL”: GENDER MEROSINI  
RAQAMLASHTIRISH LOYIHASI (TAZKIRALARDA KELTIRILGAN  
O‘ZBEK, FORS, TURK, ARAB AYOLLARI)”**

**Fan yo‘nalishi:** filologiya

*Ilmiy-texnik kengashlar yo‘nalishiga mos ravishda*

**Loyiha turi:** amaliy-innovotsion



*amaliy, innovotsion, fundamental*


**Loyiha rahbari:** dotsent O.Tuychiyeva

*FISh, ilmiy darajasi va unvoni*

*Loyiha bajarilayotgan tashkilot yuridik manzili:  
Olmazor tumani, Noraztepa ko‘chasi, 52A*

**Toshkent – 2026**

Loyiha nomi:	Loyiha raqami (shifri): 60230100 70230104	
	Fan yo'nalishi: filologiya	
Loyiha rahbarining familiyasi, ismi, sharifi: Tuychiyeva Oydin Sayfullayevna	Loyiha rahbarining telefon raqami: +99890 906-30-66 elektron pochta manzili: oydin_s@mail.ru STIR (INN) raqami: 474 887 359	
Ijrochi tashkilotning to'liq va qisqartirilgan nomi: Oriental universiteti, Tillar-1 kafedrası		
	Loyihani amalga oshirish davri (yili):	2026-yil mart 2027-yil mart
	1. f.f.n., professor Nasirova M.	
	2. f.f.d., professor v.b. Axmedova D.	
	3. f.f.n., dotsent Axmedova N.	
	4. f.f.f.d., dotsent Rahmatova G.	
	5. f.f.f.d., dotsent Dustmurodov M.	
	6. f.f.n., dotsent Sharasulova Sh.	
	7. katta o'qituvchi Azimbayeva N.	
	8. AF 301-guruh talabasi Botiraliyeva Mubina (loyiha rahbari ushbu ro'yxatda ko'rsatilmaydi)	
	Loyiha rahbarining imzosi:	
Tashkilot rahbari: N.A.Mamataxunov		

 Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasining "Dunyoning beshigin tebratar ayol": gender merosini raqamlashtirish loyihasi (Tazkiralarda keltirilgan o'zbek, fors, turk, arab ayollari) mavzusi doirasida amalga oshiriladigan amaliy va innovatsion loyiha bo'yicha

#### ASOSNOMA

"Dunyoning beshigin tebratar ayol": gender merosini raqamlashtirish loyihasi (Tazkiralarda keltirilgan o'zbek, fors, turk, arab ayollari)"

1. Tanlovga tavsiya etilayotgan mavzu nomi

2. Ilmiy loyiha mavzusi tashabbuskori  
(ilmiy tashkilot nomi)

3. Taklif etilayotgan mavzu doirasida ilgari bajarilgan/bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar natijalari tahlili

#### Tillar-1 kafedrası

XV-XX asr adabiyotida ayollarga bag'ishlab yozilgan manbalar, zikr va sharhlarning adabiyot tarixida tutgan o'rni, an'anaviylik va novatorlikni yoritib berish asosida ismlari tarix zarvaraqlarida qolib ketgan Osiyo ayollari nomlarini ilk bor ilmiy muomalaga kiritishdan iborat.

Dunyo sharqshunosligida turli tillarda yozilgan manbalarni atroflicha o'rganish sohaning ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib, har doim muhim hisoblangan. Xususan, ayollarga bag'ishlangan manbalarning monografik tavsifi, ularda nomlari zikr etilgan ayol ijodkorlarning faoliyatini o'rganish, asarlarini filologik nuqtai nazardan tahlil

qilish mumtoz adabiy merosni saqlab qolishning asosiy omillaridan sanaladi. Ayniqsa, turli mamlakatlarning qo'lyozma fondlarida saqlanib kelayotgan ayollarga bag'ishlangan asarlar, tazkiralarni qiyosiy tadqiq etish muayyan davrdagi ijtimoiy-madaniy sharoit, adabiy jarayonlar, ularda ayol ijodkorlarning o'rni, davr ayollarining yashash tarzi xususida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekistonda Markaziy Osiyo hududidan yetishib chiqqan alloma va mutafakkirlarning ilmfan sohalari va islom ta'limoti bo'yicha yaratgan asarlari tadqiqini kengaytirish va chuqurlashtirish hamda ularni asl matn va ilmiy izohli tarjima shaklida nashr etib, ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ilmiy muomalaga kiritish sharqshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan bo'lib kelmoqda. "O'zbekistonda asrlar davomida Markaziy Osiyo bo'yicha eng boy qo'lyozma meros jamlangan bo'lib, uning salmoqli qismi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Har biri ulkan ma'naviy obida, madaniyat durdonasi bo'lgan bu qo'lyozmalar fondi jahon miqyosida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan bebaho xazinadir.

#### **4. Qo'lga kiritilishi kutilayotgan yakuniy natija (mahsulot, ishlanma, texnologiya)ning tavsifi**

Ilmiy: XV-XX asrlar oralig'ida yaratilgan manbalar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinib, ulardan Ruqiyabonu, Sito un-niso, Iffatiy, Davlat, Ofoq Begim Jaloyir, Podshoh Xotun, Turkan Xotun, Zebiniso begim, Mehriy, Mahastiy, Kavkab, Ismat Begim, Orzu Samarqandiy, Gulbadan begim kabi ayollarning ijodi ilmiy muomalaga olib kiriladi. Ularni qiyosiy o'rganish asosida 1000 ga yaqin ayollar bilan bog'liq ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Sharq adabiyotida ayollarga bag'ishlangan manbalarining shakllanish bosqichlari va rivojlanish bosqichlarining davriy o'zgarishlari misollar asosida ochib beriladi.

O'rta asr Osiyo adabiyotida turli tillarda ijod qilgan shoirlar zikri o'rganiladi, ayollarga bag'ishlangan asarlar, manbalarda an'anaviylikning o'rni aniqlanib, novatorlik mezonlari belgilanadi.

Temuriy malikalar hamda movaraunnahrlik adibalar nomlari tazkiralalar orqali qayta tiklanadi. Ularning she'rlari tarjima qilinadi yoki tranleteratsiya qilinib, tahlilga tortiladi, ayollarga bag'ishlangan tazkiralarda qo'llangan mumtoz obrazlar tasniflanib, ularni talqin etish tamoyillari ilmiy dalillanadi. O'zbek, fors, turk, arab kabi adiba

va shoiralar haqida yangi ma'lumotlar taqdim etiladi.

Kutilayotgan natijalarning ishonchliligi sharq mumtoz adabiyotida ayollarga bag'ishlangan asarlar, tazkiralar, turli hil manbalarga oid o'zbek va chet el olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-nazariy qarashlar atroflicha o'rganiladi birlamchi manbalar, xususan, O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozma va toshbosma nusxalar ishga jalb qilinadi, tahlilga tortiladi materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanadi, tillar orasida zikrlar, sharhlardagi an'anaviylik hamda novatorlik borasida ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarish bilan belgilanadi

So'nggi yillarda mamlakatimizda gender tengligi va ayollar masalalariga doir normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida genderga oid maxsus kurs va yo'nalishlarning joriy etilishi hamda mazkur sohada ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar sonining ortib borishi gender tadqiqotlariga bo'lgan ehtiyojning tizimli ravishda kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Rejalashtirilayotgan ushbu ilmiy-tadqiqot loyihasi mazmunan keng qamrovli va metodologik jihatdan salmoqli bo'lib, u mazkur sohada fundamental manba sifatida xizmat qilishi ko'zda tutiladi. Loyiha doirasida tarixiy-komparativ, manbashunoslik, sotsiologik va antropologik yondashuvlar uyg'unligida gender masalalarining evolyutsiyasi, ayollar ijtimoiy mavqei hamda mintaqaviy xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalarining elektron shaklda tayyorlanishi ularni turli (pulli va bepul) ilmiy-axborot platformalariga joylashtirish imkonini beradi hamda jahon tarixi, sharqshunoslik, ijtimoiy antropologiya, sotsiologiya va gender tadqiqotlari yo'nalishida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu esa fanlararo integratsiyani kuchaytirish, ilmiy natijalarni xalqaro miqyosda muomalaga kiritish va akademik hamkorlikni kengaytirish imkonini yaratadi.

Loyiha doirasida qamrab olinadigan davlatlar va mintaqalar bo'yicha faoliyat yurituvchi yetakchi ekspertlar bilan tizimli ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda mustahkamlash, qo'shma seminar va ilmiy muloqot maydonlarini tashkil etish,

##### **5. Ehtiyoj (talab)ning mavjudligi (yetarliligi) to'g'risida tahliliy ko'rsatkichlar**

shuningdek, ayollar tarixi va gender masalalariga ixtisoslashgan alohida ilmiy doira shakllantirish rejalashtirilmoqda. Mazkur tashabbus respublikada gender tadqiqotlari bo'yicha barqaror ilmiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi

**6. Yaratiladigan yangi ishlanma (mahsulot, texnologiya)ning xorijiy/mavjud analoglaridan qiyosiy ustunligini ko'rsatuvchi indikatorlar**

Yangi ishlanmaning xorijiy yoki mahalliy analoglari, o'zbek adabiyotshunosligida Yevropa va Sharq adabiyotidan namunalarning tarjimalari.

**7. Yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot/xizmat ishlab chiqarishning resurs/xomashyo bazasining va zarur infratuzilmasining mavjudligi**

Taklif etilayotgan loyihani amalga oshirish uchun respublikamizning oliy malakali sharqshunos, arabshunos olimlarini jalb etish rejalashtirilgan. Ularning barchasi ilmiy darajalarga, xalqaro reytingga va ulkan tajribaga ega bo'lgan mutaxassis olimlardir. Loyiha jamoasining ma'naviy, madaniy, intellektual saviyasi asosiy zarur infratuzilmani tashkil etadi.

**Tillar-1 kafedrasini mudiri:**



**S. Rustamiy**

**Filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi menejeri:**



**B. Mamataxunov**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor:**



**M. Nasirova**

**Rektor:**



**N. Mamataxunov**